



Agzamxodjaeva M.Sh

2-Mavzu: Ikki to'g'ri chiziqning o'zaro joylashuvi



IKKI TO'G'RI CHIZIQNING
O'ZARO JOYLAshUVI



Reja:



1

Parallel chiziqlar


2

Ayqash chiziqlar

3

Kesishuvchi chiziqlar


Ikki to'gri chiziqning o'zaro joylashuvi



Ikki to'gri chiziq o'zaro parallel, kesishgan yoki uchrashmas bo'lishi mumkin.



**Agar to'gri chiziq proyektsiya
tekisliklaridan biriga perpendikulyar
bo'lsa, uning shu tekislikdagi
proyektsiyasi nuqta bo'ladi, bu nuqta
ikkita xarf bilan belgilanadi boshqa
tekisliklardagi proyektsiyalari tegishli
proyektsiyalar o'qlariga
perpendikulyar to'gri chiziqlar bo'ladi.**











*Profil proyektsiyalar tekisligiga parallel bo'lgan
to'gri chiziqlarning uzaro parallelligini ularning
gorizontal va frontal proyektsiyalari bo'yicha
aniqlash mumkin.*




TIIAME



*AB chiziq CD chiziqqa parallel
EF chiziq GH chiziqqa
paralleldir.*



PARALLEL TO'G'RI CHIZIQLAR.



*Agar ikki to'g'ri chiziq bir tekislikka tegishli bo'lib umumiyl kesishuv nuqtasi bo'lmasa yoki cheksiz uzoq (xosmas) nuqtada kesishsa, ular o'zaro **parallel to'g'ri***

Chiziqlarning parallelligini bitish uchun berilgan kesmaning gorizontal proyeksiyalari uzunliklari nisbatini frontal proyeksiyalari uzunliklari nisbatiga solishtirib ko'rish kerak. Bu holda nisbatlar teng bo'lsa chiziqlar parallel bo'ladi.




Parallel chiziqlarning uchlari birlashtirilganda, ularning bir nomli proyektsiyalarining kesishgan nuqtasi (E_1E_2) bir bog'lovchi chiziqda bo'ladi.



TIIAME

Tekislikka parallel bo'lgan chiziqlarning parallel eki parallel emasligini bilish uchun ularning epyuradagi gorizontal va frontal proyektsiyalari etarli bulmaydi.

Bunday chiziqlar uchun ularning profil proyektsiyalarini yasab, sungra ular uaro kanday munosabatda ekanligini aytish mumkin.







AYQASH CHIZIQLAR



Uchrashmas to'g'ri chiziqlar ayqash chiziqlar ham deb ataladi. Bunday chiziqlar o'zaro kesishmaydilar va parallel ham bo'lmaydilar. Bu chiziqlarning umumiy nuqtasi bo'lmaydi.



Ma'lumki, parallel va kesuvchi to'g'ri chiziqlar bitta tekislikka tegishli bo'ladi (4 a,b-rasmlar). Uchrashmas to'g'ri chiziqlar esa bir tekislikda yotmaydi. Uchrashmas to'g'ri chiziqlarning bir nomli proyeksiyalari chizmada o'zaro kesishsa ham, ammo kesishish nuqtalari bir bog'lovchi chiziqqa tegishli bo'lmaydi.




Uchrashmas to'g'ri chiziqlar proyeksiyalarining kesishgan nuqtasi fazodagi bu to'g'ri chiziqlarning ikki nuqtasining proyeksiyalari bo'ladi. Bunday nuqtalar konkurent nuqtalar deb ataladi.





KESISHUVCHI TO'G'RI CHIZIQLARI.



*Kesishuvchi to'g'ri chiziqlar
proyeksiyalarining kesishish
nuqtalari to'g'ri chiziqlar kesishish
nuqtasining proyeksiyalari bo'ladi.
Kesishuvchi to'g'ri chiziqlarning bir
nomli proyeksiyalari ham
chizmada o'zaro kesishadi va
kesishish nuqta proyeksiyalari bir
proyection bog'lovchi chiziqda
bo'ladi.*




Fazoda umumiy vaziyatda kesishuvchi to'g'ri chiziqlar berilgan bo'lsa, bu to'g'ri chiziqlarning faqat ikkita bir nomli proyeksiyalarining kesishishi kifoya qiladi.





*Agar kesishuvchi chiziqlarning biri proyeksiyalar tekisligining
birortasiga parallel bo'lsa, u holda ularning ikkita bir nomli
proyeksiyalarining o'zaro kesishuvi yetarli bo'lmaydi.*

*Masalan, AB va CD(38-rasm) to'g'ri chiziq
kesmalarining biri W tekislikka parallel joylashgan.*



Bu chiziqlarning o'zaro vaziyatini ularning profil proyeksiyalarini yasash bilan aniqlash mumkin.



Agar kesishish nuqtasining proyeksiyalari bir bog'lovchi chiziqda joylashsa, bu to'g'ri chiziqlar o'zarokesishadi, aks holda to'g'ri chiziqlar kesishmaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar:



1. *Engeneering Drawing, M.B. Shah, B.C. Rana., Darslik, Indiya, 2009 y.*
2. *Sh. Murodov va boshqalar. Chizma geometriya. Darslik – T. TURON IQBOL, 2007 y. 232 bet.*
3. *Davletov S.A. Chizma geometriya O'quv qo'llanma, T., TTYeSI, 2006 y. 132 bet.*
4. *Usmonov J.A. Chizma geometriya kursi. – T. 'Ta'lif nashriyoti, 2014 y. 240 bet.*
5. *Karimov A.A., Alimov U.T., Shokirova X.A. Chizma geometriya fanidan amaliy mashg'ulotlar Ish daftari. T., TTYeSI, 2014.*